

Elektron tijoratni rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari

Osiyo xalqaro Universiteti magistri Alisher Usmanov Suvonqul o‘g‘li

Osiyo xalqaro Universiteti magistri Shonazarov Kamoladdin Erkin o‘g‘li

Annotatsiya

Mazkur maqolada elektron tijoratning jahon va O‘zbekiston miqyosida bugungi holati, rivojlanish yo‘nalishlari hamda istiqbollari tahlil qilinadi. Unda zamonaviy texnologiyalar, sun‘iy intellekt, mobil savdo, AR/VR texnologiyalari, ekologik barqarorlik va xalqaro elektron savdoning roli keng yoritilgan. Shuningdek, maqolada elektron tijoratning kelgusidagi muhim tendensiyalari ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: elektron tijorat, raqamli iqtisodiyot, m-commerce, sun‘iy intellekt, social commerce, e-commerce, O‘zbekiston, onlayn savdo, xalqaro savdo.

Kirish

Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti XXI asrda savdo-sotiq sohasini tubdan o‘zgartirdi. Elektron tijorat sohasining rivojlanishida marketpleysalar asosiy ro‘l o‘ynaydi. Marketplace – marketpleys elektron tijorat platformasi, uchinchi shaxslarning mahsuloti yoki xizmati to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi elektron tijorat onlayn-do‘koni hisoblanadi. Umuman olganda, mahsulot va xizmatlarni taqdim etish uchun optimallashtirilgan onlayn platforma (veb-sayt). Xuddi shu mahsulotni ko‘pincha bir nechta sotuvchilardan sotib olish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 30-noyabrdagi “Raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste‘molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to‘g‘risida”gi PQ-381-son Qarorida elektron tijoratni yanada takomillashtirish va elektron savdo platformasini rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar keltirib o‘tilgan[1].

Elektron tijorat sohasida to‘ldirilgan reallikda mahsulotlarni sotish ham muhim faktorlardan biri hisoblanadi. To‘ldirilgan reallik vositalari virtual obyektlarni mobil qurilmalar yordamida real tasvirda ko‘rish imkonini beradi. Haqiqiy va aniq 3D modellar nafaqat mahsulotni har tomondan batafsil ko‘rib chiqishga, balki uni deyarli sinab ko‘rishga, asosiy old yoki orqa kameradagi tasvirning ustiga raqamli tasvirni qo‘yish orqali mahsulotni xonaga joylashtirib ko‘rish imkonini beradi[2].










Elektron tijorat (e-commerce) nafaqat mahsulot va xizmatlarni internet orqali sotish jarayoni, balki butun iqtisodiy tizimni optimallashtirish va zamonaviylashtirishning muhim vositasiga aylandi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, elektron tijorat global iqtisodiyotning ajralmas tarmog'iga aylangan.

Metodologiya:

Tadqiqotni amalga oshirishda tizimli yondashuv,, iqtisodiy tahlil va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Dastlab mavzuga aloqador bo'lgan ma'lumotlar to'plandi va chuqur tahlil qilindi. Olingan tahlillardan xulosalar chiqarilib kamchiliklar o'rganildi. Masalan elektron tijorat platformasida raqamli mahsulotni va (yoki) raqamli mahsulot haqidagi ma'lumotlarni joylashtirish yoki olib tashlash uchun arizalarni qabul qilishni yo'lga qo'yish, statistika ma'lumotlarini yakunlangan elektron operatsiyalar bo'yicha hisobot hujjatlarini tayyorlashni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari ushbu maqolani yoritishda erishilgan natijalar taqqoslandi.


Tahlil va natijalar:

Xaridorlarning onlayn xarid qilish asosiy sabablaridan biri bu uyda yoki ishda o'tirgan holda onlayn savdo qilish qobiliyati mavjudligidir. Onlayn xarid qilishda esa xaridorlar asosan quyidagi omillarga asosan xarid qiladi:

-  Bepul yetkazib berish
-  Chegirmalar\kuponlar
-  Boshqa xaridorlarning sharhlari
-  Sotib olishning tez va oson usuli
-  Ishonch darjasi
-  Maxsulotning ekologiy xavfsizligi
-  To'lovni taqsimlash imkoniyati



Onlayn savdoda bepul yetkazib berishga, chegirmalar va xaridorlarning iliq sharhlariga ega onlayn savdo do‘konlari boshqa savdo markazlariga qaraganda ularning xaridori ko‘p bo‘ladi.



Tijorat sohasida dunyoning yetakchi mamlakatlari: (1-chizma)

Xitoyda raqamli sotuvlar o‘shishda davom etmoqda, ammo elektron tijorat chakana savdoning dominant turi emas va atigi 23,1% ni tashkil etadi. Xitoydagi eng yirik brendlar AliBaba, JD.com va Pinduoduo marketpleysi hisoblanadi. Xitoyda tovarlarning transchegaraviy buyurtmalari juda keng tarqalgan bo‘lib, barcha onlayn xaridorlarning taxminan 42 foizi Yaponiya va AQSh kabi boshqa mamlakatlardan buyurtma bergan. Bunday xaridlar mamlakat elektron tijorat bozorining 696 milliard AQSh dollari – 58% ni tashkil etadi[4].

Xitoyda mobil qurilmalar orqali onlayn xaridlar ustunlik qiladi, bu umumiy savdodagi xaridlarning 4/3 qismi va 873,3 milliard dollarni tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkich yiliga 28,8 foizga o‘sadi, chunki mamlakatda umumiy 852,2 million smartfon foydalanuvchi mavjud, bu aholining 59,9 foizini tashkil etadi. Mamlakatda 5G aloqasi ishga tushishi munosabati bilan smartfon egalari soni ko‘payishi kutilmoqda. Shuni ta’kidlash kerakki, mobil xaridlarning 67 foizi mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan. Smartfonlar yordamida tovarlarni faol ravishda sotib olayotgan mamlakat aholisi super mobil ilova (Super-App) kabi innovatsion



yangiliklarga tezda ko‘nikib qolishdi. 980 million foydalanuvchiga ega WeChat ijtimoiy tarmog‘i messenjerdan to‘liq bozor – Marketpleysga o‘tdi.

AI asosidagi tizimlar xaridorlarga shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko‘rsatish, chatbotlar orqali onlayn muloqotni tashkil qilish hamda yetkazib berish jarayonini avtomatlashtirish imkonini bermoqda. TikTok, Instagram va Facebook orqali mahsulot reklama qilish, mijozlar bilan bevosita muloqotga kirishish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotuvlarni amalga oshirish elektron savdoning yangi bosqichi hisoblanadi[3].

AR (Augmented Reality) va VR (Virtual Reality) texnologiyalari mahsulotni vizual sinab ko‘rish imkonini berib, xarid qiluvchining ishonchini oshiradi. Bu texnologiyalar ayniqsa kiyim-kechak, mebel va kosmetika sohalarida qo‘llanilmoqda.

Ekologik jihatdan barqaror bo‘lgan mahsulotlar va yetkazib berish tizimlariga talab ortib bormoqda. Kompaniyalar “yashil” qadoqlash, karbon izini kamaytirish va ekologik mahsulotlar taklif qilish orqali mijozlar e‘tiborini tortishga harakat qilmoqda.

O‘zbekiston hukumati tomonidan so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, logistika infratuzilmasini takomillashtirish va to‘lov tizimlarini soddalashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2023-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonda onlayn xaridlar soni o‘tgan yilga nisbatan 35 foizga oshgan. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning e-commerce platformalarga kirib borishi eksport salohiyatini ham oshirmoqda[5].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda yillar davomida electron tijoratga bo‘lgan talab ishib bormoqda buning asosiy sabablaridan biri uning tezkorligi, sifatlili, narxlarning saytlarda mavjudligi va hamma turdagi xaridorlar uchun moslangan maxsulotlar mavjudligidir. Hozirgi kunda rivojlangna mamlakatlarda deyarli barcha xizmat ko‘rsatish, savdo, sanoat sohalarida onlayn platform shakllangan va ularning turi ham ortib bormoqda. Marketplace, AI va bunga o‘xshagan yangi texnologiyalardan foydalanish biznesni soddalashtiradi xaridorlarga qulaylik yaratib mijozlar ehtiyojini qondirishda katta ahamiyat kasb etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 30.11.2023-yildagi PQ-381-sonli “Raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste’molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to‘g‘risida”gi qarori.
2. А.А.Марченков «Маркетплейсы как главный тренд электронной коммерции» // Научные стремления. Выпуск 26. Россия. 2021 с.65
3. Верегина А. В., Коваль Д. В. Приоритеты развития электронной коммерции в 2022 г. // Экономика. Налоги. Право. 2022. № 1. С. 94–104
4. В.И.Ахмедовning “Raqamlashtirish davrida elektron tijoratning rivojlanishi” “Raqamli Iqtisodiyot” Ilmiy-Elektron Jurnalida 2023 №2 С 6-13
5. Islomov, M. *Elektron tijorat asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti 2022 С 84-88



Research Science and Innovation House

